

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
bakalavriat ta'lif yo'naliishing**

**MALAKA TALABLARI**

УЗР ОУМТЗ  
Брояк № 344  
25.08.2023

Toshkent-2023

## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «4» 07 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilarini takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

1. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsisi .....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari: .....	4
1.2.2. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari: .....	4
1.2.3. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumi kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3. Umumi va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.4. Kvalifikatsiya .....	10
Bibliografik ma’lumotlar.....	11
Kelishuv varag‘i .....	12

## **1. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi *bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi***

60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 3 yil.

### **1.1. *Qo‘llanish sohasi.***

#### **1.1.1. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi *ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Malaka talabining qo‘llanilishi.***

Malaka talabi 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrilar tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalar uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. *Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:***

- 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;
- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;
- oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlar.

#### **1.2. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi *ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.***

##### **1.2.1. 60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi *ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari:***

- umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o‘rta ta’limda tasviriy san’at va chizmachilik fanlari o‘qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;
- o‘rta maxsus va professional ta’limda tasviriy san’at va chizmachilik fanlari

o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

umumi o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

- umumi o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

#### *1.2.2. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:*

- umumi o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;

- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

- O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- ishlab chiqarish korxonalarida;

- davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida;

60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng, umumi o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tasviriy san'at va chizmachilik, muhandislik va kompyuter grafikasi fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, tasviriy san'at va chizmachilik sohalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, ishlab chiqarish korxonalarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

#### *1.2.3. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:*

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

#### *1.2.4. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.*

60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

## **Pedagogik faoliyatida:**

- **o'quv jarayonini rejalashtirish:** DTS va O'D larining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning extiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differential yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;
- **ta'lif samaradorligini ta'minlash:** dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lif jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lif berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etisho'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differential yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;
- **o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta'lif natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lif natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lif natijalarini taxlil qilish, dars rejasini va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish
- **tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lif muassasasining ustavi va ichki tartib qo'iadalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish
- **xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lif muhitini yaratish va ta'minlash:** O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;
- **o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirop etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

- hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalg qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalg etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohalarining ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohalariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish;
- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishidagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi sohalariga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

#### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

- o'quvchilarda maskuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;
- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

- pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

### **2. 60111200 -Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

#### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishslash, ommaviy nutq so‘zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallaganlik;
- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishslash metod, usul va vositalardan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishslash ko‘nikmalariga egalik.
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;
- gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta’sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishga qobiliyatatlilik.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- o‘quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish;
- ta’lim jarayoni sub’ektlarining birqalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o‘zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;
- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog‘liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg‘unligini, uzviylik va uzlusizligini ta’minlash;
- tanqidiy fikrlash metodikasini o‘zlashtirganlik;
- tasviriy san’at va chizmachilik darslarida texnika xavfsizligini ta’minlash;
- inklyuziv ta’limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o‘quvchilar bilan ishslash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo‘lishi;
- ta’lim oluvchilarga o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo‘naltirilgan o‘qitishga qobiliyatatlilik.

## **2.3. Umumiylar va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Talabalar umumiylar va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tashi hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiylar va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo‘srimcha

kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida taxsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-6 semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda xafstaning 4 kunida nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunda amaliyot o'tkaziladi.

**2.3.1. 60111200-Tasviri san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha o'quv yuklamalari:**

O'quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Kunduzgi ta'lim shaklida ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	3930	131
Tanlov fanlari	720	24
Malakaviy amaliyot	750	25
<b>Jami</b>	<b>5400</b>	<b>180</b>

**2.3.2. 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:**

Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
	<b>Majburiy blok</b>	<b>3930</b>	<b>131</b>	
PSY110	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
O'EYT104	O'zbekistonning eng yangi tarixi ✓	120	4	1
QalamT110	Qalamtasvir I	300	10	1,2
RangT109	Rangtasvir I	270	9	1,2
ChizM105	Chizmachilik I	150	5	2
ChizGeo110	Chizma geometriya	300	10	1,2
O'RT104	Amaliy o'zbek (rus) tili	120	4	1
FAL104	Falsafa ✓	120	4	2
PED208	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
InkT.GP204	Inklyuziv ta'lif. Gospital pedagogika	120	4	3
QalamT208	Qalamtasvir II	240	8	3,4
RangT208	Rangtasvir II	240	8	3,4
ChizM209	Chizmachilik II	270	9	3,4
Din204	Dinshunoslik ✓	120	4	4
TSFO'M305	Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi	150	5	5
CHFO'M305	Chizmachilik fanini o'qitish metodikasi	150	5	6
GTA306	Grafik tasvirlash asoslari	180	6	5
MKG304	Muhandislik kompyuter grafikasi	120	4	6
Hayk304	Haykaltaroshlik	120	4	6
TST304	Tasviriy san'at tarixi	120	4	5
ABS306	Amaliy bezak san'ati	180	6	5
	<b>Tanlov blok</b>	<b>720</b>	<b>24</b>	<b>3-6</b>
	<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>750</b>	<b>25</b>	<b>2-6</b>
	<b>JAMI</b>	<b>5400</b>	<b>180</b>	

**2.4. Kvalifikatsiya:**

Pedagog. Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 74

---

### Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lif standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi, qalamtasvir, rangtasvir, chizmachilik, chizma geometriya, tasviriy san'at tarixi, tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi, chizmachilik fanini o'qitish metodikasi, grafik tasvirlash asoslari va 3D modellashtirish, muhandislik kompyuter grafikasi, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

## Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari



M.O'.

## KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

direktorin

Sh.Yakubov

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha  
va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lim markazi

direktori

Sh.Sattorov

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori

Sh.Sharipov

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'

Guliston davlat pedagogika instituti

rektori v.b.

A.Qalandarov

2023-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogikauniversiteti**  
**60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka**  
**talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta'lif muassasalari va**  
**asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

"\_\_\_" 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lif markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbaev birgalikda TDPUDA ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushu dalolatnomani tuzdik:

**60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lif yo'nalishi.**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldaggi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2022 yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lif sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son hamda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan(hisob raqami 43) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi ««Oliy ta'lifning davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-2021-son buyrug'i hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab  
ta'lifi vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'lif markazi direktori**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti  
rektori, professor**

**Toshkent davlat pedagogika universiteti  
rektori, professor**

  
**Sh.Sattarov**

  
**Sh.Sharipov**

  
**A.Kirgizbayev**

